# 2022- yil yanvar oyida uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari

2022- yilning yanvar oyida Toshkent shahrida jami 2 059,6 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan 101,0 % ni tashkil etdi.




## 2022- yil yanvar oyida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.




***Ma’lumot uchun**: qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*



## 2022- yil yanvar oyida mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi




### Qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2022- yil 1- fevral holatiga ko‘ra qurilish sohasida ro‘yxatdan o‘tgan jami korxona va tashkilotlar soni 9,2 mingta, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 8,8 mingtani tashkil etib, o‘tgan 2021- yilning mos davriga nisbatan 863 taga ko‘paygan.

2022- yilning yanvar oyida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan bino va inshootlar qurilishi ishlari hajmi 129,4 % ni tashkil qilib (jami qurilishdagi ulushi 62,8 **%**) ni tashkil qildi, fuqarolik obyektlarini qurish 91,6% ga (jami qurilishdagi ulushi 14,4%), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 134,4% ga (jami qurilishdagi ulushi 22,8%) Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko‘payishiga asosiy omil bo‘lib xizmat qildi.

Bino va inshootlar qurilishi bo‘yicha qurilish ishlarining eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2021- yilning yanvar oyidagi jami qurilish ko‘rsatkichiga nisbatan 53,8 **%** ni tashkil etdi.

## Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

| | Holatiga ko‘ra: | | O‘tgan yilga nisbatan, (+,-) |
|---|---|---|---|
| | 01.02.2021- yil | 01.02.2022- yil | |
| **Toshkent shahar** | **7986** | **8849** | 863 |
| tumanlar: | | | |
| Uchtepa | 589 | 647 | 58 |
| Bektemir | 171 | 196 | 25 |
| Yunusobod | 1031 | 1098 | 67 |
| Mirzo Ulug’bek | 1012 | 1122 | 110 |
| Mirobod | 719 | 828 | 109 |
| Shayxontoxur | 633 | 698 | 65 |
| Olmazor | 673 | 745 | 72 |
| Sergeli | 436 | 477 | 41 |
| Yakkasaroy | 819 | 899 | 80 |
| Yashnabod | 714 | 824 | 110 |
| Yangihayot | 157 | 203 | 46 |
| Chilonzor | 1032 | 1112 | 80 |



# Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.02.2022- yil holatiga






***Ma’lumot uchun**: Toshkent shahrida qurilish korxonalari soni bo‘yicha eng ko‘p ulushga ega bo‘lgan hududlar Mirzo Ulug’bek (12,7 %), Chilonzor (12,6 %) va Yunusobod (12,4 %) tumanlaridir.*

2022- yilning yanvar oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 252,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan 75,3 % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi nisbatan ulushi 12,3 **%** ni tashkil qildi.



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da




***Ma’lumot uchun:*** *yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Bektemir tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **31,5**%i), Uchtepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **25,6** %i), Shayxontoxur tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **20,5** %i), va Chilonzor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **15,6**%)ga to‘g‘ri keldi.*

## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022- yil yanvar oyida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'payish kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **75,3 %i** bajarilib, 2021-yilning yanvar oylariga nisbatan **4,6%** punktga ko'paygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **104,6 %** ni tashkil etgan holda **1 552,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **12,4** % ni tashkil etib, **255,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan kamayish kuzatilib, **115,9** % ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi







Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **18,3** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan 57**,5 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **0,9 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 041,3** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati **101,4 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **99,1%** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

***2022- yil yanvar oyi***

**62,8 %**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo‘yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **62,8%** yoki **1 292,9** mlrd. so‘mni tashkil etgan.

**12,3 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **252,5** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **12,3 %** ni tashkil etdi.

**75,3 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **1 552,0** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **75,3%** ni tashkil etdi.

**12,4 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **255,1** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **12,4%** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar oylarida

| | Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m) | O‘sish sur’ati, %da | Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m) |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahar** | **2 059,6** | **101,0** | **1260,7** |
| tumanlar: | | | |
| Uchtepa | 67,4 | 143,3 | 21,3 |
| Bektemir | 289,9 | 107,4 | 170,6 |
| Yunusobod | 216,8 | 92,9 | 156,4 |
| Mirzo Ulug’bek | 143,3 | 80,5 | 87,3 |
| Mirobod | 95,1 | 108,3 | 41,8 |
| Shayxontoxur | 114,0 | 114,6 | 63,7 |
| Olmazor | 156,3 | 87,4 | 72,0 |
| Sergeli | 124,5 | 115,3 | 88,6 |
| Yakkasaroy | 370,7 | 96,3 | 243,1 |
| Yashnabod | 195,5 | 106,1 | 124,3 |
| Yangihayot | 53,2 | 117,7 | 33,1 |
| Chilonzor | 232,9 | 105,0 | 158,3 |

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda

# Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari,%da

## 2021- yil yanvar oyi

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurilishi | Bino va inshootlarni qurilishi |
|---|---|---|
| 20,9 | 19,4 | 59,7 |

## 2022- yil yanvar oyi

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurilishi | Bino va inshootlarni qurilishi |
|---|---|---|
| 22,8 | 14,4 | 62,8 |

***Ma’lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*



# Bino va inshootlar qurilishi

**ulushi %da**

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **6,6 %** ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar oyidagi ko‘rsatkichga nisbatan **12,1 %** punktga ko’paydi. Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar oyidagi ko‘rsatkichga nisbatan **30,0 %** punktga ko’paydi, 4**3,8 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yilning yanvar oyidagi ko‘rsatkichga nisbatan **38,3 %** punktga ko’paydi, **12,4 %** ni tashkil etdi.





## Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

**ulushi %da**

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **3,4 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan 51**,0 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **11,1 % (24,2 %** punktga ko‘paydi)ni tashkil etdi.

.





# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**ulushi % da**

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2**,3 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **196,2%** punktga kapaydi. **20,4 %** ulush kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **26,8 %** punktga ko’paydi.



# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar oyida

## Eng yuqori hajm

*(mlrd. so'm)*

1. Yunusobod t. 370,7
2. Mirzo Ulug'bek t. 289,9
3. Yashnabod t. 232,9

## Eng kichik hajm

*(mlrd. so'm)*

1. Yangihayot t. 53,2
2. Bektemir t. 67,4
3. Sergeli 95,1

**Toshkent shahar**
**Statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi**

*Aloqa telefoni: (71) 203-88-18(19)*